«TASDIQLANGAN»
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi"
davlat muassasasi
Farmakologiya qo'mitasi
«4» 02 2026 r. № 2

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA
FANIGAN FAST

Preparatning savdo nomi: Fanigan Fast
Ta'sir etuvchi moddalar (XPN): diklofenak dietilamin, metilsalitsilat, mentol, zig'ir moyi;
Dori shakli: sirtga qo'llash uchun gel
Tarkibi:
har bir gramm gel quyidagilarni saqlaydi:
faol moddalar: diklofenak dietilamin, 10 mg diklofenak natriyga ekvivalent, metilsalitsilat 100 mg, mentol 50 mg, zig'ir moyi 30 mg;
yordamchi moddalar: propilenglikol, karbomer 940, natriy EDTA, polisorbat 80, benzil spirti, natriy gidroksidi, tozalangan suv.
Ta'rifi: oq rangli, o'ziga xos hidli, bir xil massali gel.
Farmakoterapevtik guruhi: suyak-mushak tizimi. Bo'g'im va mushak og'riqlarida mahalliy qo'llash uchun preparatlar. Mahalliy qo'llash uchun nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar. Diklofenak.
ATX kodi: M02AA15

Farmakologik xususiyatlari
Farmakodinamikasi
Mahalliy qo'llanganida Fanigan Fast og'riqni qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi va shishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Og'riqni va bo'g'imlarning yallig'lanishini bartaraf qiladi, ertalabki tanglik va bo'g'imlarning shishini kamaytiradi, harakat hajmini oshishiga yordam beradi.
Fanigan Fast gelning ta'siri uning tarkibiga kiruvchi komponentlariga bog'liq. Diklofenak siklooksigenazani bloklaydi, isitma, yallig'lanish va og'riqning genezida muhim rol o'ynaydigan endogen moddalar – prostaglandinlarning sintezini susaytiradi. Diklofenak og'riqni oladi, yallig'lanishni bartaraf qiladi.
Mentol sovuq sezuvchi retseptorlarning ta'sirlanishini chaqiradi. Bu surtilgan joyda kapillyarlarning torayishi va o'tkazuvchanligini kamayishi, salqinlik sezish bilan kechadi. Mahalliy chalg'ituvchi ta'sirga ega, va o'rtacha namoyon bo'ladigan og'riqni qoldiruvchi ta'sir ko'rsatadi, mentolning so'rilishi ahamiyatsiz. Metilsalitsilat salitsil kislotasining hosilasi bo'lib, mahalliy ta'sirlovchi samaraga ega. Terining retseptorlarini ta'sirlanishini chaqirib, metilsalitsilat og'riq hislarini kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, metilsalitsilat prostaglandinlarning sintezini tormozlaydi, bu yallig'langan to'qimalarning shishi va infiltratsiyasini kamaytiradi.
Mahalliy ravishda qo'llanilganda, u buzilmagan teri orqali yallig'lanish o'chog'iga osongina kirib, yuqori terapevtik konsentratsiyalarni hosil qiladi. Yallig'langan to'qimalarda metilsalitsilat gidrolizlanadi va salitsil kislotasi anioniga aylanadi, u jigarda dihidroksibenzoy kislotasiga aylanadi va buyraklar orqali chiqariladi. Yarim yemirilish davri 2 soat.
Zig'ir urug'idan olingan moy alfa-linolenik kislotaning asosiy komponenti (to'yinmagan yog'li kislotaning etil efiri) yallig'lanishga qarshi samaraga, antioksidant xususiyatlarga ega, surtilgan joyda qon aylanishini yaxshilaydi.
Fanigan Fast gelining ta'siri teriga surtilgandan so'ng birnecha minutdan keyinoq boshlanadi. 20-30 minutdan keyin gelning ta'siri maksimumiga yetadi. Asosiy klinik simptomlarni yo'qolishi odatda davolash boshlangandan keyingi birinchi kunlari qayd etiladi.
Farmakokinetika
Diklofenak gel sifatida qo'llanilganda asta-sekin sekin so'rilib, teri osti yog' qatlamiga, mushak to'qimasiga, bo'g'im kapsulasiga va sinovial suyuqlikka to'g'ri kirib borish yo'li bilan chuqur kirib boradi. Uzoq vaqt mobaynida davolanganda yoki zararlangan sohani katta qismiga

surtilganda, diklofenak asta sekinlik bilan qon plazmasiga o'tadi (teriga surtilgan dozaning 3-6%). Sxema bo'yicha gelni o'zoq vaqt kuniga uch mahaldan, 2.5 grammdan (10mg/sm^2) 3 kun mobaynida qo'llanilganda diklofenakning stabil konsentratsiyasi 20-40 nmol/l, sinovial suyuqlikda 370 nmol/l, sinovial to'kimada 410 nmol/l ni tashkil qiladi. Plazmadagi konsentratsiya tez kamayayotgan bir vaqtda, sinovial suyuqlikdagi konsentratsiya stabil holatda qoladi.
Diklofenak glyukuron kislotasi bilan birga kon'yugatsiya yo'li orqali jigarda metabolizmga uchraydi. Diklofenakning 70% siydik orqali, qolgan qismi axlat bilan chiqariladi.
Metilsalitsilatni mahaliy qo'llanilganda teri osti yog' qatlamiga, mushak to'kimasiga, bo'g'im kapsulasiga tez so'riladi va gidroksillanish yo'li bilan salitsil kislotasining anioniga aylanadi.

Qo'llanilishi
Ogriq va shish bilan kechuvchi tayanch-harakat apparatining yallig'lanish va degenerativ xarakterdagi quyidagi kasalliklarda mahalliy davolashda: revmatoid artriti, ankilozlovchi spondiloartrit (Bexterev kasalligi), o'tkir podagra, psoriatik va posttravmatik artritlar, yumshoq to'qimalarning revmatik kasalliklari (tendinit, bursit, miozit), bo'g'imlarning degenerativ kasalliklari (katta va qichik bo'g'imlarning osteoartrozlari), umurtqa pog'onasining osteoxondrozi, mialgiyalar, nevralgiyalar, bel-dug'gaza radikuliti, jarohatlardan keyingi og'riklar, boylamlar bo'shligi, boylamlar, mushak va paylarni cho'zilishlari, og'ir jismoniy yuklamalar chaqirgan mushak va bo'g'imlardagi og'riqda qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari
Dozalari
Og'riqli sohaning maydoniga qarab, 2-4 g gel (4-8 sm li tizimcha) teriga yupqa qilib sutkada 2-3 marta surtiladi va yengil ishqalanadi. O'rtacha sutkalik doza 10 g gelni tashkil qiladi, bu 100 mg diklofenak natriyga to'g'ri keladi. Preparatni shikastlanmagan teriga surtish kerek, ko'z va shilliq qavatlarga tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Gelni ochiq jarohatlarga surtish mumkin emas. Davolash kursining davomiyligi shifokor maslahatisiz 10 kundan oshmasligi kerak.
Qo'llash usuli
Mahalliy - sirtga qo'llash uchun.

Nojo'ya ta'sirlari
Kamdan-kam hollarda:
- toshma, shish va qavariqlar, papulalar, tangachalar, qizarishlar
- terini qurishi;
- achishish yoki chimchilanish hissi;
- terini qichishishi, eshakemi;

Aloxida hollarda:
- umumiy toshmani paydo bo'lishi;
- yuzni shishi (Kvinke shishi) ko'rinishidagi yukori sezuvchanlik reaksiyalari rivojlanishi;
- bo'g'ilish;
- fotosensibilizatsiya;

Fanigan Fast gel ni tananing katta yuzasiga surtilganda tizimli nojo'ya ta'sirlari yuzaga kelishi mumkin:
- jig'ildon qaynashi, ko'ngil aynishi, qusish, diareya;
- qorinda og'riq;
- jigar transaminazalarini aktivligini oshishi;
- bosh og'rigi, bosh aylanishi;
- gematuriya
- anafilakticheskiy shok, teri toshmalari;
- anemiya, trombotsitopeniya, leykopeniya, agranulotsitoz
- uzoq muddat qon ketishi kuzatilishi mumkin.

Qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar

- diklofenakka va boshqa tarkibiy qismlarga yuqori sezuvchanlik;
- epidermisni shikastlanishi, ko‘llash sohasidagi ochiq jarohatlar;
- aspirin qabul qilgan bemorlarda astmatik status holati ;
- aniqlanmagan etiologiyali qon hujayralarining anormal tuzilishi;
- gastrit va duodenitning o‘tkir bosqichlari;
- homiladorlik va laktatsiya davri;
- 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qo‘llash mumkin emas (bu yoshda preparatni sirtga qo‘llash bo‘yicha ma'lumotlar etarli emas).

Dorilarning o‘zaro ta’siri

Fanigan Fast gelni boshqa dori vositalari bilan bir vaqtda qo‘llash mumkin, chunki bu preparatning komponentlarini ular bilan, shu jumladan diklofenak natriyni peroral qabul qilish bilan tizimli o‘zaro ta’siri aniqlanmagan.

Biroq Fanigan Fast gel katta dozalarda uzoq muddat qo‘llanganida, diklofenak antikoagulyantlar, glyukokortikosteroidlarning, litiy preparatlarining samarasini kuchaytirishi mumkin, shuningdek furosemid va tiazid diuretiklarning ta’sirini susaytirishi mumkin. Preparat qon plazmasida digoksinning konsentratsiyasini oshirishi, boshqa nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalarning o‘zlashtirilishini pasaytirishi, me’da-ichak yo‘llarining shilliq qavatiga ularning ulserogen ta’sirini kuchaytirishi mumkin. N-asil-etanolamin-kislota-amidazani o'z ichiga olgan ba'zi dorilarni birgalikda mahalliy qo‘llanganida eshakemi, qizarish, qipiqlanish shaklida ko‘rinishidagi lokal ta’sirlanish rivojlanishi mumkin.

Maxsus ko‘rsatmalar

Xar qanday nojo‘ya ta’sirlar paydo bo‘lganida, qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazish va davolanishga tuzatish kiritish zarur. Asetilsalitsil kislotasi, boshka salitsilatlar yoki boshka steroid bo‘lmagan yaliglanishga qarshi preparatalarni (astma xurujlari, terining reaksiyalari, yoki vazomotor renit) maxalliy qo‘llashda yukori sezuvchanlik tarixiga ega bo‘lgan patsientlar, preparatni extiyotkorlik bilan, foyda va mavjud xavflarni sinchikovlik bilan baxolagandan sung qo‘llaniladi. Agar sizda meda va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi, jigar yoki buyrak funksiyasining buzilishi, qon xujayralarining anomal tuzilishi yoki burun shilliq qavatining polipozi bo‘lsa Fanigan Fast gelini extiyotkorlik bilan qo‘llash kerak. Gelni qo‘llashdan so‘ng, shilliq qavatlarga va ko‘zlarga preparat qoldiklari tushmasligi uchun qo‘llarni yuvish kerak.

Bolalar yoshdagi patsientlar

12 yoshgacha bo‘lgan bolalarga preparatning xavfsizligi to‘g‘risida malumot yo‘q.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo‘llanishi

Homiladorlikning oxirgi uch oyida va emizish davrlarida gelni tananing katta sohalariga surtish va uzoq vaqt davomida ishlatish mumkin emas, chunki hozirgi vaqtda preparatni homilaga va yangi tug‘ilgan chaqalokka zararli ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q.

Preparatni homiladorlik va emizish davrlarida buyurish masalasini faqat shifokor hal kiladi.

Avtomobilni va murakkab mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta’siri

Fanigan Fast gel transport yoki mexanizmlarni boshqarishda xech qanday ta’sirga ega emas.

Dozani oshirib yuborilishi

Fanigan Fast gelni mahalliy qo'llash bilan dozani oshirib yuborish mumkin emas.

Tasodifiy yutilgan taqdirda davolash nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar bilan zaharlanish bilan bir xil bo'ladi. Bemor tibbiy yordamga murojaat qilishi kerak.

Semptomatik davolash yuqori qon bosimi, buyrak etishmovchiligi, konvulsiyalar, nafas olish depressiyasi, me’da-ichak kasalliklari kabi asoratlar belgilari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Chiqarilish shakli

30 g yoki 100 g dan gel laminantlangan tubada. Bitta bunday tuba tibbiyotda qo‘llanilishiga doir yo‘riqnomasi bilan birga karton o‘ramda.

Saqlash sharoitlari
Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin. Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.
Muzlatilmasin!

Yaroqlilik muddati
2 yil.
Preparatni yaroqlilik muddati o‘tgach qo‘llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi
Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi
Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Manzil
SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston

O‘zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo‘yicha e’tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:
“BARAKA DORI FARM” MChJ XK
100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalka Yuli ko‘chasi, 91-uy.
Tel.: + 998 78 150 97 97; faks: + 998 78 150 97 87;
Uyali tel.: + 998 93 388 87 82;
Email: pv@kusum.uz
Web-сайт: kusum.uz